

NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI FORSIY SINONIMLAR XUSUSIDA**О ПЕРСИДСКИХ СИНОНИМАХ В ЭПОСЕ НАВОИ "САДДИ ИСКАНДАРИЙ"****ABOUT PERSIAN SYNONYMS IN THE NAVOI EPIC "SADDI ISKANDARI"****Alimova Zarifa Vaxobovna¹**¹Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida shoir tomonidan qo'llanilgan forsiy so'zlar, ularning sinonimlari, sinonimik qator xususida so'z boradi. Sinonimlar haqida jahon tilshunoslarining ilmiy qarashlari keltirilgan. Asardagi forscha sinonim so'zlarning leksik ma'nolari, forsch-tojikcha lug'atlardagi izohlarga asoslanganligi, boshqa manbalarda keltirilgan izohlarga taqqoslanganligi, forscha so'zlarning Navoiy asarlari izohli lug'atidagi leksik ma'nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. Sinonimlar bir xil miqdordagi faol semantik valentlikka ega bo'lishi kerakligi, bir grammatik kategoriyaga ega bo'lishi lozimligi, bir sinonimik qatordagi barcha sinonimlar o'z navbatida bir-biriga o'zaro sinonim bo'lishi kerakligi haqida izohlar keltirilgan. Maqolada keltirilgan forscha so'zlarning leksik va semantik jihatdan ma'nolari iizohlangan.

Аннотация

В данной статье говорится о персидских словах, использованных поэтом в произведении Алишера Навои «Садди Искандарий», их синонимах, а также синонимической строке. Представлены научные мнения мировых лингвистов о синонимах. Представлены лексические значения персидских синонимов в работе, на основе комментариев в персидско-таджикских словарях, сравнения с комментариями в других источниках, а также лексические значения персидских слов в аннотированном словаре произведений Навои. Даются пояснения, что синонимы должны иметь одинаковую активную семантическую валентность, иметь одну и ту же грамматическую категорию, а все синонимы в одном синонимическом ряду должны быть синонимами друг друга. Объясняются лексические и семантические значения персидских слов, упомянутых в статье.

Abstract

This article talks about the Persian words used by the poet in Alisher Navoi's work "Saddi Iskandariy", their synonyms, and the synonymous line. The scientific opinions of world linguists about synonyms are presented. The lexical meanings of the Persian synonyms in the work, based on the comments in Persian-Tajik dictionaries, comparison with the comments in other sources, and the lexical meanings of the Persian words in the annotated dictionary of Navoi's works are presented. Explanations are given that synonyms should have the same amount of active semantic valence, should have the same grammatical category, and all synonyms in one synonymic line should be synonyms of each other. The lexical and semantic meanings of the Persian words mentioned in the article are explained.

Kalit so'zlar: Sinonimlar, sinonimik qator, tilning boyish usullari, sinonimik frazeologiya, lingvistik imkoniyat, lug'aviy sinonimlar, grammatik sinonimlar.

Ключевые слова: Синонимы, синонимический ряд, слова, способы обогащения языка, синонимическая фразеология, лингвистические возможности, словарные синонимы, грамматические синонимы.

Key words: Synonyms, synonymous series, ways of enriching the language, synonymous phraseology, linguistic possibility, dictionary synonyms, grammatical synonyms.

KIRISH

Sinonimlar tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi leksik qatlamlardan biridir. O'zbek tilshunosligida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish va tadqiq etishga doir bir qancha izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunda ham ushbu yo'nalishda tilshunos olimlarning izlanishlari davom etmoqda. So'zlarning, ya'ni birdan ortiq so'zning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar tilshunoslikda absolyut sinonimlar deb ataladi. Ularni ayrim tilshunoslar dublet deb ataydilar. Ba'zi ishlarda esa ma'nolari ayni bir xil sinonimlar mavjudligini aytish bilan cheklanilgan: ular absolyut sinonim deb ham, dublet deb ham atalmagan. Aslini olganda, absolyut sinonim va dublet terminlari bir xil ma'noga ega. Bu terminlar ostida ifodalangan sinonimlar birdan ortiq so'zning semantik tarkibi ayni bir xil bo'lishini bildiradi.

Alisher Navoiy eski o'zbek tilini forsch-tojik tili bilan solishtirib: "Alfoz va iborot va'z qilurda turk forsqa foiz kelibtur va o'z alfozida ishorat, iboratlariga maziyatlar ko'rguzubtur" ("so'z va iboralar yaratishda turk tojikdan ustun kelibdi va o'z tilida ishorayu iboralar ijod qilishda ortiqliklar

TILSHUNOSLIK

ko'rguzibdi"), -deya ochiq-oydin yozgan edi. Shoir o'z so'zining iisboti uchun fors-tojik tilida ekvivalenti bo'lmagan so'zlar, sinonim va omonimlarga, turk tilidan fors tiliga o'tgan so'zlarga misollar ham keltirgan.

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida sinonimlarni tadqiq qilishga, umuman o'zbek lug'atshunosligiga katta hissa qo'shgan tilshunoslardan f.f.n. Ergash Umarov, akademik Azim Hojiyev, f.f.n.Olim Usmon, f.f.n. Zokir Ma'rupov, f.f.n. Abduvahob Madvaliyevlarning nomlarini keltirish joizdir.

Bu borada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ichida I.Qo'chqortoyev, A.Musurmonov, A.Nurmonov. H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begmatov, T.Mirzaqulov, Sh.Iskandrova, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narziyeva, D.Hojiyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy kuzatishlari o'zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon va rus tilshunosaridan I.V.Sentenberq, W.Flaysheer, Y.N. Karaulov, L.A.Bragina, N.M.Karamzin, A.A.Reformatskiy, A.I.Yefimov, Y.Y.Sidelnikova, Y.D.Apresyan, A.D.Grigoryevlar sinonimlarning o'rganilishiga oid qator ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Y.N. Karaulov lug'at tarkibining turli sohalarini semantik maydonlarga (masalan, xursandchilik maydoni), leksik-semantik guruhlarga (masalan, o'zgarish ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar guruhi), mazmuniy guruhlarga (masalan, qushlarning nomi), sinonimik qatorlarga (masalan, botir – invariant ma'noga ega bo'lgan qator) ajratish zarurligini ta'kidlaydi [5,314]. I.V.Sentenberq ham tilning leksik-semantik sistemasida iyerarxiyaning semantik munosabatida turuvchi asosiy leksik-semantik guruhlar tarkibidan joy olgan kop ma'noli so'zlar bilan bir qatorda sinonimlar va sinonimik qatorni ham alohida korsatib o'tadi [8,314].

L.A.Braginaning yozishicha, sinonimlar uchun asos deb bir tushunchaning turli ko'rinishlarini ifodalovchi ma'noviy yaqinlikni tushunamiz. Shunday holda sinonimlarning farqlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi, sinonim sozlarning faqat umumiy ma'nosi emas, balki har bir sinonimik so'zning muhim farqlovchi xususiyatlari yuzaga chiqadi [4,65].

N.M.Karamzin esa sinonimlarni tilning boyish manbai deb hisoblaydi, ya'ni tilda faqat asosiy qoidalarni zikr etish uchun emas, balki ularning farqlarini izohlovchi so'zlarni topa olsangiz, bilingki, o'sha til bo'ydir [6,173].

A.A.Reformatskiy va A.I.Yefimovlarning fikriga ko'ra, tilda ma'no jihatdan bir xil so'zlar mavjud emas [7,66]. A.D.Grigoryevaning fikricha, faqat ma'noviy aynan o'xshashlik (ma'no yaqinligi emas) so'zlarni sinonim sifatida qabul qilishga imkon beradi. Bunday qarashlar, o'z navbatida bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi, bu orqali sinonimiya hodisasining chuqur anglanilishiga imkon beradi.

Y.Y.Sidelnikovaning "Hozirgi zamon sinonimiya" nomli maqolasida sinonimlarning quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi:

- Sinonimlar tor ma'noda, lug'atda bir xil izohlanishi lozim, ya'ni bir xil tarjima qilinishi, bir tushuncha, predmet yoki hodisani ifodalashi lozim;
- Bir xil miqdordagi faol semantik valentlikka ega bo'lishi kerak;
- Bir grammatik kategoriyaga ega bo'lishi lozim;
- Bir sinonimik qatordagi barcha sinonimlar o'z navbatida bir-biriga o'zaro sinonim bo'lishi kerak, ammo bu ular og'zaki nutqda ham bir-birining o'rniga ishlatilishiga kafolat bermaydi [9, 96].

Sinonimlarni tasniflashda asosan ularning ikki xususiyati – farqlovchi va differensiyalovchi (darajalovchi) xususiyatlariga tayaniladi. Aynan mana shu xususiyatlariga ko'ra sinonimlar uch turga bo'linadi: mazmuniy - belgili, hissiy – uslubiy va funksional – uslubiy sinonimlar.

Dunyo tillari orasida tilni ravon qilishga, uni yanada bo'yoqdor qilishga xizmat qiluvchi til birliklari mavjud. Bulardan biri iboralar bo'lib, ular tilni yanada go'zalroq qilishga ko'mak beradi.

Frazeologik sinonimiya masalasiga ayniqsa, Y.D.Apresyan chuqur yondoshgan. Olim frazeologik sinonimlarni belgilovchi o'lchovlar sifatida iboralarning ma'nosi, sintaktik funksiyasi, sintaktik formasi, kontekstual xoslanish kabilarni kiritadi [2,5].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham ko'p miqdorni tashkil qiladi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib ham bo'lmaydi. Ayni bir ma'noni teng ma'nonlik deb

tushunib bo'lmaydi. Har bir sinonim shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zidan tashqari o'ziga xos ma'no qirrasiga ega. Xuddi shu fikrni nemis olimi W. Flayscher ham tasdiqlaydi [3, 182].

Bir ma'no atrofida birlashuvchi sinonimlar yig'indisi sinonimik uya yoki sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan, *xat, noma, maktub; odam, inson, kishi, bashar; sovg'a, hadya, tuhfa, tortiq, armug'on; xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum; balo, falokat, ofat* singarilar.

Ma'lumki, sinonimik qatordagi har bir lisoniy birlik bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Lisoniy birlik faqat bitta ma'nosi bilangina u yoki bu sinonimik qatordan o'rin olishi mumkin. U o'zining boshqa ma'nolari bilan o'zga sinonimik qatorda ishtirok eta oladi. Shuning uchun bir sinonimik qatorga kiradigan birliklarning o'zini keltirish bilangina ish bitmaydi. Ularni kontekstda keltirish kerak. Toki aynan ko'zlangan ma'noni ko'rsatib tursin.

Ma'lumki, she'riyat sultoni Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida ham sinonimlar juda ko'p qo'llangan. Navoiy zullisonayn shoir sifatida turkiy so'zlarning forsiy sinonimlarini mohirona qo'llagan. Ularning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

Sahardin falak zoli ro' toza yo'q,

Shafaqdin yuziga aning g'oz a yo'q (Saddi Iskandariy, 1-bet).

Ma'nosi: *Na sahardan osmon yuzi yrishar, na shafaqdan uning yuzi qizarardi* (Nasriy bayon, 3-bet).

Mazkur baytdagi forscha *ro'* so'zi turkiy *yuz* so'ziga sinonim holda qo'llangan.

Birovga yetishgonga qiymat pashez,

Yana birga qiymat kelib ganjhez (Saddi Iskandariy, 30-bet).

Ma'nosi: *Birovning so'zi qora chaqalik qimmatga ega bo'lmagani holda, ba'zi birovlarniki xazina qadar bebaho qimmatga egadir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 33-bet).

Mazkur baytdagi *ganjhez* leksemasi quyida keltirilgan baytdagi *ganjposh* hamda *ganjrez* leksemalariga sinonimdir:

Ham ul ganjrezu ham ul ganjposh,

Bo'lub bazlidin dahr aro ganj fosh (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *U xazinagina yaratib qolmagan, balki ularni o'z saxovatkor qo'li bilan dunyoga sochgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Ganjposh – گنجپاش "ganj" – "xazina", "posh" – "poshidan" (sochmoq) fe'lining hozirgi zamon asosidan hosil qilingan ot turkumiga tegishli leksema bo'lib, "xazina sochuvchi" deya tarjima qilinadi. *Ganj*, ya'ni *xazina* leksemasi orqali oltin, tillalar xazinasi tushuniladi [1,46]. Shu ma'noda ANATILda *ganjposh* – oltin va durlar sochuvchi deb tarjima qilingan (ANATIL, 1-jild, 394-bet).

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, *ganjrez* va *ganjposh* leksemalari o'zaro sinonim bo'ib, *ganjrez* so'zining *rez* qismi "rixtan" – "soshmoq", "quymoq", "sepmaq" fe'lining hozirgi zamon asosidir. Natijada "ganj" – "xazina", "rez" – "sochuvchi", "sepuvchi" asosida "xazina sochuvchi" so'zi hosil bo'lgan.

Quyidagi baytlarda *kibrit* va *gugurt* leksemalari o'zaro sinonimdir:

Ne kibrit, gugirdi ahmar ham ul.

Ne gugird, iksiri akbar ham ul (Saddi Iskandariy, 12-bet)

Zulf va **gesu** leksemalari *soch* ma'nosini ifodalashiga quyidagi baytni misol keltirish mumkin:

Demay zulf, iki gesuyi anbarin,

Qarorib alar atridin mushki Chin (Saddi Iskandariy, 14-bet).

Ma'limki, sinonimlar *lug'aviy sinonimiya* va *grammatik sinonimiya*ga bo'linadi. *Lug'aviy sinonimiya* o'z navbatida uchga bo'linadi: *leksik sinonimiya, frazeologik sinonimiya, leksik-frazeologik sinonimiya* [10,381].

Grammatik sinonimiya shunisi bilan ahamiyatliki, bunda o'zaro sinonimik munosabatga grammatik birliklar kirishadi. Ya'ni so'z birikmalari, qo'shimchalar va boshqalar.

Grammatik sinonimiya ham o'z navbatida turlarga bo'linadi.

Morfologik sinonimiya. Bunda o'zaro sinonimik munosabatga morfologik birliklar kirishadi: *sersoqol, soqoldor; kelyapman, kelayotirman, kelmoqdaman.*

Sintaktik sinonimiya. Bunda o'zaro munosabatga sintaktik sinonimlar kirishadi. Masalan, *onamga oldim - onam uchun oldim, telefonda gaplashdim – telefon orqali gaplashdim.*

TILSHUNOSLIK

Shu o'rinda lug'aviy sinonimiyaning frazeologik sinonimiya turiga "Saddi Iskandariy"dan misol keltirsak:

*Kel, ey **tole'i sa'du baxti baland***

Ki, sizdin bo'lar odami arjumand (Saddi Iskandariy, 23-bet).

Keltirilgan baytda **tole'i sa'd** va **baxti baland** sinonim bo'lib, *tole'* – *baxt, saodat, sa'd* – *yuqoriga, balandlikka ko'tarilmoq* demakdir. *Tole'* hamda *sa'd* so'zlari arabiy bo'lib, *baxti baland* birikmasiga sinonim sifatida qo'llangan. Baytdan ko'rinadiki, **tole'i sa'd** (arabiy) va **baxti baland** (forsiy) birikmasida so'zlar o'zaro izofa orqali birikkan bo'lib, har ikki izofiy birikma frazeologik sinonimiyaga misoldir.

Grammatik sinonimiyaning bir turi hisoblangan morfologik sinonimiyaga "Saddi Iskandariy"dan quyidagi baytni misol qilish mumkin:

O'tub dog'i bir yerga tortib alam

*Ki, bo'lmay anga **hamrahi hamqadam*** (Saddi Iskandariy, 19-bet).

Baytdagi hamrah, hamqadam so'zlari sinonim bo'lib, *ham* hozirgi o'zbek adabiy tilining so'z yasash jarayonida yangi lug'aviy birliklar hosil qiluvchi faol vositalar jumlasiga kiradi. Baytdagi *rah* (roh-yo'l) va *qadam* so'zlari sinonim bo'lib, *hamroh, yo'ldosh* ma'nosini ifodalaydi.

Sinonimik qatordagi so'zlar eskirgan yoki dialektal xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Shunday xususiyatga ega bo'gan sinonim ishtirok etgan quyidagi bayt fikrimiz dalili bo'la oladi:

*Havo andoq aylabdur oni **lavand,***

*Tarab **tanbalu,** komu g'afat tanand* (Saddi Iskandariy, 24-bet).

Keltirilgan baytdagi *lavand* va *tanbal* so'zlari *ishyoqmas, dangasa* ma'nolarini ifodalaydi. Baytdagi *lavand* so'zi Samarqand, Buxoro shevasida uchraydi, *tanbal* esa badiiy nutqqa xos so'zdir 13, [].

Sinonimik qatordagi so'zlar quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Emotsional bo'yoqdorligi bilan; ijobiy bo'yoq- *jilmaydi, bo'ychan*; salbiy bo'yoq- *tirjaydi, irshaydi, novcha, daroz*.
2. Biror nutq uslubiga xosligi bilan; *osmon* – umumnutqqa xos, *samo* – badiiy nutqqa xos, *falak* – so'zlashuv nutqiga xos.
3. Adabiy tilda qo'llanilishi yoki qo'llanmasligi bilan; *odam, inson, bashar* sinonimlaridan *bashar; quyosh, shams* sinonimlaridan *shams* adabiy tilda qo'llanilmaydi [12, 124].

Bir ma'no atrofida birlashuvchi sinonimlar yig'indisi sinonimik uya yoki sinonimik qatorga quyidagi to'rtlikni ham misol qilish mumkin:

*Ki, chun «**Xamsa**» azmin durust ayladim,*

*Kamargohig'a **panja** rust ayladim.*

*Yetishmay ko'p ul ishta **panjamg'a** ranj,*

*Nasib o'ldi **bash ganj**idin to'rt ganj* (Saddi Iskandariy, 25-bet).

To'rtlikda keltirilgan *xamsa, panja, besh* so'zlari sinonimik qatorni tashkil etadi. Ya'ni "Xamsa" (arabiy) orqali besh dostonni qamrab oluvchi asar tushunilsa, *panja* (forsiy) orqali qo'lning *panja* qismida beshta barmoq borligi, *besh* (turkiy) orqali besh soni, miqdori tushuniladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarning shakl jihatdan turlicha bo'lishidir. Sinonimlar tilning ijtimoiy va badiiy-estetik jilolarini namoyish qila olishi bilan ajralib turadi. Sinonimiyani nutqiy ijodning chegaralanmagan imkoniyatlarini yuzaga keltira oluvchi o'ziga xos maydon deyish mumkin. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida sinoim so'zlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi sinonimlar ham shoirning boshqa noyob asarlari kabi o'zbek tili lug'atini boyitishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, tilshunoslikda sinonimiya o'ta ahamiyatli va mirakkab sohani tashkil etadi. Alisher Navoiy asarlaridagi betakror sinonimlar boshqa shoirlar ijodida uchramaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AZ Vaxobovna. About Some Persian Compound Words in Alisher Navoi's Poem " Saddi Iskandari". (2023). Zien Journal of Social Sciences and Humanities. 18, 46-50.
2. Апресян Ю.А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке. -Москва: Просвещение. 1992, С.-5.
3. Fleischer W. Phrazeologiyе der deutschen Gegen warts srathe, Leipzig. 1982, -P.182.

4. Брагина Л.А. Синонимы и их столкновение. –Вопросы языкознания. –М.: 1978. № 6, С.-65.
5. Караулов Ю.Н.Общая и русская идеография.- Москва: Наука, 1976, 314 с.
6. Карамзин О.Н. О богатстве языка.- Избранные сочинения: В 2-ч т.; Т. 2. –М.: 1994. С.-173.
7. Реформатский А.А. Введение в языкознание. –Москва: Наука, 1995, С.62-66.
8. Сентенберг И.В. Лексическая семантика английского глагола.- Москва: Наука, 1976, 314 с.
9. Сидельникова Е.Ю. Синонимия наречий, Дальневосточный федеральный университет, –Москва: 2008.
10. Z Alimova. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida. Scientific journal of the Fergana State University. 2023, -P. 639-643.
11. Z Alimova. Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik nihatdan guruhlanishi. Scientific journal of the Fergana State University. 2023, -P. 380-383.
12. Z Alimova. Tillarda o'zlashma so'zlarning mavzuiy jihatdan guruhlanishi. Бюллетень педагогов нового Узбекистана. 2023, 1(4). 124-126.
13. AZ Vaxobovna. On Some Persian-Tajik Plant Names in Navoy's Epos" Saddi Iskandari". (2023) Texas Journal of Philology, Culture and History 18, 32-37.